



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI № 9 2023 YIL 26 SENTABR



1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUBORAK BO'LSIN!

Hurmatli ustozlar, akademiyaning qadrlil professor-o'qituvchilari! Siz azizlarni yaqinlashib kelayotgan O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy tabriklayman.

Dunyodagi ming-minglab kasblar orasida ikkita kasb – shifokorlik va o'qituvchilik kasbi borki, ular, toki hayot bor ekan, o'zining ma'no-mazmunini va olijanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yo'qotmaydi.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yurtimizda 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilingani buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ustozlar ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Ularning sharafli, ammo zahmatli mehnatdagi, ilmiy-ijodiy izlanishdagi hamda o'quv jarayonidagi jon fidoligini yuksak qadrlaymiz.

Izlanuvchan, iqtidorli, har tomonlama yetuk, faxrlanishga arziydigan talabalarimiz safi yil sayin ortib borayotganligi bizni behad shod etadi.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasb-hunarlarga ega bo'lgan yoshlarga buyuk kelajakni ta'minlashi mumkin. Ana shunday yetuk mutaxassis yoshni Siz tarbiyalab, voyaga yetkazasiz

Qadri baland, muhtaram ustoz-murabbiylar! Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor muborakbod etaman.

Sizlarga sihat-salomatlik, uzoq umr, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, dasturxoningizga fayzu baraka tilayman. Ilmiy va ijodiy faoliyatingizda ulkan yutuqlar va omad yor bo'lsin.

A.SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING YANGI BOSH O'QUV BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi nafaqat mamlakatimiz, balki jahon tibbiyotiga oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislar tayyorlab beradigan yurtimizdagi tayanch tibbiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.



Bu yerda kadrlar salohiyatini oshirish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Buning amaliy ifodasi sifatida bugun akademiyaning yangi rekonstruksiya qilingan bosh o'quv binosi foydalanishga topshirildi.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



Ustozlar hurmati – ajdodlarimiz merosi.



Hikmat

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING YANGI BOSH O'QUV BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



(Boshi 1-betda)

Ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamentining rahbari Odil Abdurahmonov, sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov, shuningdek, tibbiyot muassasalari rahbarlari hamda talaba va o'qituvchilar ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, bugun Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan barcha islohotlar negizida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdek ezgu maqsad yotadi. Buni esa Toshkent tibbiyot akademiyasi faoliyati misolida ham ko'rish mumkin.

Foydalanishga topshirilgan yangi binoda 8 ta kafedra, 10 ta bo'lim, ma'muriyat hamda boshqa maishiy hududlar joylashgan bo'lib, 3000 nafar talaba tahsil oladi.

Inshootda 148 ta o'quv auditoriyalari, 10 ta smart ma'ruza zallari, 60 nafar bolajonga mo'ljallangan bog'cha, 500 nafardan ortiq talabaning mustaqil tayyorgarligi uchun ijtimoiy zonalar hamda 520

o'rinni o'zlashtirish shoxobchasi mavjud.

Xususan, binoning birinchi qavatida Simulyatsion markaz va 3 ta elektron mikroskop laboratoriya tashkil etilgan. Yaponiyaning eng zamonaviy laborator uskunalarini bilan jihozlangan simulyatsion markazda bakalavriat va magistratura bosqichi bitiruvchilari amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniga ega.

Mazkur bo'lim turli klinik vaziyatlarni tahlil qiluvchi manekenlar va simulyatorlar bilan jihozlangan bo'lib, shoshilinch tibbiy yordam, reanimatsion, jarrohlik, pediatriya, terapevtik mutaxassisliklar hamda an'anaviy tibbiyot kabi 10 ta o'quv auditoriyalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, binoning ikkinchi qavatida Raqamli tibbiyot markazi joylashgan. Bu yerdagi Test markazida talabalar o'rtasida imtihon sinovlarini o'tkazish, mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun 24/7 tartibda ishlovchi 200 o'rinni virtual kutubxona va kompyuter sinflari mavjud.

Telemeditsina yoki masofaviy tibbiyotga bag'ishlangan bo'limda talabalarga distansion tibbiy xizmat tizimida ishlash, elektron poliklinika va stasionar bo'limda esa elektron tizim orqali bemorni ro'yxatga olish, maslahat berish, kundalik holidan xabar olish hamda elektron karta to'ldirish o'rgatib boriladi.

Shuningdek, binoning yettinchi qavatida Biotibbiyot texnologiyalari markazi tashkil etilib, tibbiy genetika, hujayra texnologiyalari, immunologiya, elektron mikroskopiya, farmakotoksikologiya, ekologik laboratoriya va ilmiy maktablar mavjud.

Ushbu qavatda joylashgan Texnopark va sakkizinchi qavatdagi raqamlashtirilgan Axborot resurs markazi ham talabalarining bilim olishi va o'z ustida izlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ochilish marosimidan so'ng mehmonlar yangi binoning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishib, Simulyatsion markaz va boshqa bo'limlar faoliyatiga yuqori baho berdi.

O'ZA



1 oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

YILLAR SILSILASIDA O‘ZGARMAGAN INSON

Mansab, martaba, manoqib aksariyat odamlarning kimligini ko‘rsatib qo‘yadi. Dono xalqimiz “Birovning asl basharasini ko‘rmoqchi bo‘lsang, mansab berib sinab ko‘rgin”, deydi.

Men Ustoz Sayfiddin Nuriddinovichni deyarli 45 yildan beri bilaman, hanuzgacha chehralarida tabassum, faoliyatlarida qat‘iyat, nigohlarida mehr-shafqat, kalomida hikmat ko‘rinib turadigan haqiqiy komil insondirlar.



Bir ilm dargohida qariyb 40 yildan ortiq birgalikda ishlab, biror marotaba nojo‘ya va noo‘rin gapirganlarini, qattiq asabiylashganlarini, kimnidir tergap, kimnidir yozg‘irganliklarini ko‘rmadim. Shu bilan birga, birorta bemor, uning qon-qarindoshi Sayfiddin akadan norizo bo‘lib, bu dargohdan ketganligini ham eshitmadim. Ilm toliblari uni hamma vaqt Akademiyaning eng mohir va eng bag‘riking pedagogi deb maqtib yuradilar. Ayrim shifokorlarimizga va hatto ayrim pedagoglarimizga xos bo‘lgan kibru havo, manfaatparastlik, beparvolik, o‘zibo‘larchilik, soxtakorlik u kishining tabiatiga mutlaqo zid bo‘lgan xislatlardir.

Sayfiddin aka 1935 yil 25 dekabrda Toshkentning Eski shahrida, aniqrog‘i Sebzor dahasida dunyoga keladilar. O‘rta maktabni a‘lo baholarga bitirib, 1952



yili ToshMlni davolash fakultetiga o‘qishga kiradilar. 1958 yil institutni yakunlab, taqsimot bo‘yicha Xorazm viloyatiga ishga yuboriladi. 1960 yili Sayfiddin aka o‘zi tahsil olgan ToshMI nevrologiya kafedrasiga ishga qabul qilinadi.

Bilimdon shifokor va pedagog bo‘lish, bemorlar va talabalar ko‘nglidan mustahkam joy olish, ularni hurmat va ishonchini qozonish aslida oson kechmaydi. Negaki, bolaligidan yaxshi tarbiya, hayot davomida orttirilgan malaka va ilm tufayligina bunga erishish mumkin. Ajoyib nevropatolog, mohir pedagog, olim Sayfiddin Nuriddinovichni ish faoliyati ham shunday kechdi. U doimo tibbiyot ilmini ipidan ignasigacha chuqur o‘rganishga intildi, bu yo‘ldagi barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Oxir-oqibat ilmiy va amaliy izlanishlari samara berdi. 1972 yili S.Nuriddinov ustoz akademika Nabi Majidovich Majidov rahbarligi ostida nomzodlik dissertatsiyasini mohirona yoqladi.

Oxir-oqibat xizmat pillapoyalaridan yuqoriladi, respublikamiz tibbiyoti rivojiga munosib hissasini qo‘shgan olimlar qatoridan joy oldi.

S.Nuriddinovich ToshMI nevrologiya kafedrasida dotsent, o‘quv ishlariga mas‘ul bo‘lib qariyb 40 yildan ortiq shu vazifalarni sidqidildan ado etdi.

Ish jarayonida S.Nuriddinov 50 dan ortiq o‘quv, o‘quv uslubiy, metodik qo‘llanmalar, 300 dan ziyod ilmiy maqolalari Respublika, MDH va xorijiy davlatlarda nashr ettirdi.

S.Nuriddinov “Sog‘liqni saqlash a‘lochisi” ko‘krak nishoni, ToshMI rektorati, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Oliy ta‘lim vazirligining faxriy yorliqlari va 2018 yili O‘zbekiston Respublikasi SSV hamda O‘zbekiston Nevropatologlar assotsiatsiyasi akademika Nabi Majidovich Majidovning 90 yilligi medali bilan taqdirlandi.

Sayfiddin akani oilalarini shifokorlar sulolasi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Umr yo‘ldoshlari Adibaxon aya uzoq yillar tibbiyot kollejida nevrologiyadan saboq berib kelganlar. Ustozning ikki o‘g‘illari ham ota



izidan borib shifokorlik kasbini tanlashgan. Qizlari esa o‘rta meditsina xodimasi. 20 dan ortiq nevara-evaralar ustozning bebaho boyliklari, hayotining davomchiligidir. “Kim ilm talab qilish yo‘liga yursa, Alloh unga jannat yo‘lini oson qiladi”, deyiladi Hadisi shariflarda. Yillar oqar suvdek oqib o‘tdi, S.Nuriddinov O‘zbekiston tibbiyotiga o‘z ilmiy salohiyatini qo‘shib, nevrologiya fanini puxta egallagan yetuk mutaxassisga aylandi.

“Shifokor olim o‘z ustida ishlashdan to‘xtamasligi lozim. Zero, uning pishiq-puxta fikru mushohadasi, sohaga yangicha taklif va mulohazalari avvalo shogirdlariga, qolaversa tibbiyotimiz rivojiga katta naf keltiradi. Men shunga amal qilishga odatlanganman”, deydi Sayfiddin Nuriddinov.

Sayfiddin aka nihoyatda pokiza, kamtarin, xayrli va ezgu ishlari sadoqat va shijoat bilan amalga oshirayotgan millatparvar insondir. Halol mehnat, pokiza qalb, o‘tgan kunlarga shukronalik, insoniy-ma‘naviy odob-axloqni tinmas targ‘ibotchisi, o‘zi esa barcha insoniy fazilatlar bo‘yicha hammaga ibrat bo‘luvchi Ustoz baxtimizga omon bo‘ling.


Har doim yoru do‘stlar e‘zozida va el ardog‘ida bo‘ling. Biz sizdek ustozning borligidan faxrlanib, Sizga yanada omadlar va yangidan-yangi yutuqlar tilab qolamiz.

Sayfiddin Nuriddinovich bosib o‘tayotgan bu ibratli hayot yo‘lingiz ko‘plab yoshlarimizga ibrat bo‘ladi.

*Domlada bisot yo‘q, kitobdan boshqa,
Qalbida lahza cho‘g‘ oftobdan boshqa.
Shogirdlar kamolini ko‘rsa bo‘lgani,
Qolgan kerakmas savobdan boshqa,*

deya Sizni yana bir bora ehtiromlab qolamiz muhtaram Ustoz!

Qutbiddin NIZOMOV,
Sog‘liqni saqlash a‘lochisi, “Turon” xalq yozuvchisi,
Alijon ZOHIIDIY,
tabobat fanlari doktori, “Turon” Fanlar akademiyasi akademigi



1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni**KASBGA SADOQAT...**

Bugungi kunda ayollarimiz ham oilada, ham jamiyatda o'z o'rnini va mavqeiga ega. Shuningdek, ular har bir sohada o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan obro'-e'tibor qozonmoqda. Ana shunday insonlardan biri Toshkent tibbiyot akademiyasining pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy-pedagogika fakulteti 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasida katta o'qituvchisi, oliy toifali shifokor, hurmatli, jonkuyar ustoz – Shoira Abdurahmanovna Qodirovadir.



Qadim Samarqandda tug'ilib, ulg'aygan Shoira bolalik orzusi shifokor bo'lish edi. Bu qutlug' orzu uni 1977 yili I.P.Pavlov nomli Samarqand Davlat Meditsina institutiga o'qishga yetakladi.

Institutda o'qigan yillarida ham u bilimga chanqoq, barcha fanlarni qiziqish va ishtiyok bilan o'zlashtirishi, shu bilan birga faol talaba sifatida ham tengdoshlari va ustozlarining hurmatini qozondi.

1983 yili institutni "Davolash ishi" mutaxassisligi bo'yicha "Imtiyozli diplom" bilan tugalladi va 1983–1985 yillar mobaynida shu institutning 3-ichki kasalliklar kafedrasida "Terapiya" mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinaturani o'tadi. 1985–1994 yillar mobaynida Navoiy viloyati va Toshkent shahridagi kasalxonalarda terapevt, bo'lim mudiri, 1992 yildan 1995 yilgacha Toshkent shahri Uchtepa (sobiq A.Ikromov) tumani bosh terapevti vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Undagi kasbga hurmat, pedagoglik iqtidorni payqashgan 1994 yili Birinchi Toshkent Davlat Tibbiyot institutiga ishga taklif etishdi va u 1994 yilning 2005 yilgacha Birinchi Toshkent Davlat Tibbiyot institutining gospital terapiya kafedrasida assistent, 2004 yildan katta o'qituvchi, 2005 yilning sentabr oyidan hozirgi vaqtgacha yangidan tashkil topgan Toshkent tibbiyot akademiyasida katta o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

O'qituvchilik katta, eng murakkab san'atdir. Ushbu kasbni egallagan shaxsda avvalo insoniylik, fidoyilik va vatanparvarlik kabi muqaddas tuyg'u qaror topadi. U insonni tarbiyalab, voyaga yetkazadi, hayotiga mazmun olib kirib, komillik sari yo'naltiradi. Bu kasb hayotning oq va qora ranglarini yaxshi farqlashga o'rgatadi. Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashning boyishiga, fikrning toza va musaffo bo'lishiga, ruhiyatni sog'lom bo'lishga imkon yaratadi. Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan yoshlarimizni esa kasbga tayyorlash, ularning ma'naviy dunyosini yanada boyitish esa shu oliy o'quv yurtlari pedagog-o'qituvchilaridan chuqur mas'uliyatni talab etadi. Hozirda talabalarga turli-tuman bilimlar to'planadigan ob'ekt, ya'ni faqat bilimdon mutaxassis deb emas, balki, intellektual va ma'naviy jihatdan barkamol fazilatlarini o'zlashtiruvchi inson deb qaraladi.

Kafedrada ishlash bilan birga o'quv jarayonida ham faol ishtirok etib kelayotganini alohida e'tirof etish joiz. Jumladan, ichki kasalliklar fani, "Terapiya" mutaxassisligi bo'yicha yangi ishchi Dasturlarni, o'quv uslubiy majmuani, elektron o'quv qo'llanma-sillabusni, talabalar uchun malakaviy amaliyot Dasturlarini tayyorlashda, guruhlar murabbiyi sifatida faol qatnashdi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tishda esa zamonaviy pedagogik texnologiyaning interaktiv usullaridan foydalanib keladi. Shuningdek, kafedrada "ma'naviyat va ma'rifat" ishlari bo'yicha mas'ul sifatida fakultet va akademiya miqyosida o'tkaziladigan barcha tadbirlarda hozirgi zamon pedagogining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga nisbatan cheksiz sadoqat uni boshqa kasb egalardan ajratib turadi. Zero, pedagog faqat o'z talabalarining ongiga murojaat qilibgina qolmay, balki, ularning his-tuyg'ulari, irodasiga ta'sir ko'rsatib,

aktiv faoliyatga undaydi, buning uchun esa u yaxshi psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi zarur.

Sh.Qodirova o'zining ma'ruzalarida aniq bilimlar yuzasidan bilimlar tizimini beradi, fan va texnika yangiliklari bilan tanishtirib, uning muammo va istiqbollari haqida tushunarli va sodda talqin qiladi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi hamda ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Sh.Qodirova o'z ishiga, berilgan barcha topshiriqlarni bajarishga mas'uliyat bilan yondashadi. U intizomli, tashabbuskor, izlanuvchan xodim. Ko'p yillardan buyon kafedrada "Yosh terapevt" to'garagini olib boradi va "Iqtidorli talabalar" bilan ishlashga rahbarlik qiladi. U kishi tayyorlagan ko'plab talabalar "Ichki kasalliklar" fani bo'yicha Xalqaro Fan olimpiadalari va ilmiy-amaliy anjumanlarda muvaffaqiyatli qatnashib, 1-2-3-o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining va "Sog'lom avlod" jamg'armasining bir necha bor Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Yoshligidan adabiyotga, ijodga qiziqishi tufayli Shoira Abdurahmanovnaning ilmiy-ma'naviy-ma'rifiy maqolalari bilan respublikamizda chop etiladigan ko'plab ommaviy axborot vositalarida qiziqarli maqolalari nashr qilinmoqda. U shuningdek, akademiya'mizning "Tibbiyotnoma" ro'znomasining faol mualliflaridan ham biri hisoblanadi.

Sh.Qodirova tomonidan yakka va hammualiflikda 2 ta o'quv qo'llanma, 70 ga yaqin ilmiy maqolalar, 100 ga yaqin tezis, 28 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 4 ta mualliflik guvohnomasi, 1 ta uslubiy tavsianoma, 5 ta EHM Dasturi tayyorlangan, 28 ta ilmiy-ommabop, 85 ta ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi maqolalari chop etilgan.

Shoira Qodirova jonkuyar pedagog, o'z ishiga sadoqatli, e'tiborli, yoshlarning doimiy maslahatchisi va g'amxo'r ustoz, shu bilan birga samimiy va kamtarin inson sifatida akademiya professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda talabalar orasida katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan, ular hurmatini qozongan pedagoglardan biri hisoblanadi.

Sh.Qodirova haqidagi hikoyamizni muxtasar etar ekanmiz, ustozni yaqinlashib kelayotgan O'qituvchi va murabbiylar kuni bayrami bilan chin dildan qutlab, mustahkam sog'lik, oilaviy xotirjamlik tilagan holda necha minglab xasta dillarga shifo taratayotgan shifobaxsh qo'llaringiz aslo tolmasin, talabalarga saboq berishdek og'ir va mashaqqatli kasbingiz bardavom bo'lsin muhtarama ustoz deb qolamiz.

Qutbiddin NIZOMOV,
Sog'liqni saqlash a'lochisi,
"Turon" fanlar akademiyasi akademigi,
"Turon" xalq yozuvchisi,
Alijon ZOHIYDI,

Xalqaro "Turon" yozuvchilar uyushmasi raisi,
"Turon" FA va Yevropa tabiiy fanlar akademiyalari akademigi



USTOZGA TA'ZIM!

USTOZ! Inson kamolotining asoschisi, ma'rifat atalmish buyuk xilqatga yetaklovchi, kichik go'dakni komil inson darajasiga olib borguvchi buyuk zot!

USTOZ! O'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxshida etadigan mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosib inson! Ustoz matonat egasi, ilm urfonida mayoq tutgan muhtaram zotdir. Har bir tetapoya qilayotgan tolib albatta ustoz qo'llaridan tutadi, bilim atalmish olamga nazar tashlaydi, aql va tafakkurini ta'lim orqali bo'y cho'zdiradi. Shunday ekan, bugun ustozga hurmat, ehtirom har qachongidan yuksak darajada belgilanmoqda.

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgating", degan so'zlari beixtiyor yodga olsak, chindan ham, dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib boradigan, o'ta murakkab bir davrda yashaydigan avlodni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasi, o'qituvchi mehnatining o'рни beqiyosdir. Ana shu haqiqatni hisobga olib, bugun ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni davlat siyosatining eng muhim va ustuvor darajasiga ko'tarildi. O'tgan qisqa davrda yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, maktab ta'limida 11 yillik tizimga o'tish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari optimallashtirish, nodavlat ta'lim xizmati ko'rsatish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim hamda oliy ta'limni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi va shu asosda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli O'zbekiston yoshlari turli sohalarida o'z bilim va salohiyatini namoyon etib, Vatanimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etmoqda.

Ilm – ruh ozig'i. Insoniyat ilm bilan haqiqiy saodatni qo'lga kiritadi, uning sharofati bilan yuksaladi. Ilm, ustozning sa'y-harakati bilan egallanadi. Ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokorlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlaridir. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos xizmat qiladilar. Sabr va mehrni libosga aylantiradilar. Yangi O'zbekistonning rivoji uchun xizmat qilayotgan murabbiylar, Uchinchi Renessans me'morlari ilm mash'alini yanada baland ko'tarib, bugungi tarixiy kunlarda chin kasbiy sadoqat bilan bilim olamini nurafshon qilishdan aslo charchamang.

Nigora HAKIMOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

2023 yil sentabrining dastlabki o'n kunligi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida O'zbekiston – AQSh sog'liqni saqlash haftaligi sifatida yorqin iz qoldirdi.

O'ZARO HAMKORLIK YANADA RIVOJLANADI

Haftalik doirasida poytaxtimizdagi "Trilliant Tashkent" mehmonxonasida start olgan xalqaro anjumanda mamlakatimiz Sog'liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu nufuzli tadbir o'tkazildi.

Respublikamizdagi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, tibbiy oliy ta'lim muassasalari va hududiy tibbiyot maskanlari rahbarlari, shuningdek, yurtimizning AQShdagi favqulodda va muxtor elchisi Furqat Siddiqov, AQShning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Djonatan Xenik, ushbu davlat sog'liqni saqlash va inson xizmatlari departamenti rahbari muovini Andrea Palm, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O'zbekistondagi rahbari David Xofman, AQSh yuqumli kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC)ning Markaziy Osiyo bo'yicha rahbari Aleksandr Millman, AQSh Farmokopeya rahbari Ronald Piervinsenzi hamda JSTning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Ashina Xalaxidinalar onlayn va oflayn tarzda ishtirok etdilar.

Garvard genomika markazi bilan tibbiy-genetika sohasidagi kelishuv esa yurtimizda ushbu yo'nalishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish uchun muhim asos bo'ldi. Aytish kerak, mazkur hamkorlik yurtimizda tibbiy genetika bo'yicha markaz tashkil etish, uni eng so'nggi va zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash, AQSh universitetida o'zbekistonlik mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o'z ichiga oladi.

Qolaversa, Nyu-York shahrida joylashgan Kolumbiya universiteti rahbariyati bilan o'tkazilgan uchrashuvda to'rtta yo'nalish – sog'liqni saqlash, menejment, hamshiralik ishi va yurtimizdagi barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlari, xususan, Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, Janubiy Karolina tibbiyot institutidan yurtimiz tibbiyot oliy o'quv yurtlariga mutaxassislarni jalb qilishga erishilib, O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi va Nebraska universiteti o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan memorandum imzolandi.

Yurtimizda o'tkazilgan O'zbekiston – AQSh sog'liqni saqlash haftaligi esa ana shu hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.



"Trilliant Tashkent" mehmonxonasida o'tayotgan O'zbekiston – AQSh sog'liqni saqlash haftaligi doirasidagi anjumanda Toshkent tibbiyot akademiyasi O'zbekiston – AQSh tibbiyot forumining asosiy marosimi jarayonida Webster universiteti bilan yo'l xaritasini imzolandi.

Mazkur hamkorlik aloqalari yaqin kelajakda tibbiy ta'limdagi zamonaviy texnologiyalar sohasidagi yirik ilmiy-amaliy loyihalar uchun asos bo'ladi.

Hamkorlikning yana bir ahamiyatli tomoni AQShning yetakchi universitetlari bilan ko'plab yo'nalishlarda qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirishdir.

Xususan, anjumanda mamlakatlararo tibbiy hamkorlikni kengaytirish, sohani raqamlashtirish, tibbiy turizmni rivojlantirish, investitsiyaviy loyihalar qamrovini kengaytirish, tibbiy ta'limda qo'shma dasturlarni amalga oshirish, xalq tabobati yo'nalishiga doir qator masalalar muhokama etildi.

O'z navbatida, tadbir davomida sog'liqni saqlash sohasida ikki mamlakat o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun AQShlik bir guruh hamkorlar "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, anjuman doirasida AQShlik hamkorlar bilan Sog'liqni saqlash vazirligi, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va tibbiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qator memorandum va shartnomalar imzolandi.

TTA Matbuot xizmati



BADIIY TAFAKKUR

Komil insonni shakllantirish va tarbiyalash tushunchasi eng avvalo oila va jamiyat hayotidagi uzviylikka borib taqaladi. Farzandlarimizga ibrat qilib ko'rsatiladigan manbaalar qanchalik ular ruhiyatiga yaqin bo'lsa, shunchalik ularning ma'naviy tafakkuriga chuqurroq singib boradi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalar turar joylarida kichik san'at ko'rgazmalarini tashkil etishdan maqsad ham shunga qaratilgan.

TTA bosh o'quv binosi yo'laklari va barcha talabalar turar joylari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ruxsat etilgan portretlari va "Ona siymosi" aks etgan portretlar hamda Kamoliddin Bekzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti professor-o'qituvchilari tomonidan ishlangan san'at asarlari, rassomchilik namunalari bilan bezatildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasining Kamoliddin Bekzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti bilan o'zaro kelishuvi asosida

professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan 100dan ziyod natyurmort, etyud va peyzaj kabi ijod namunalari xarid qilindi.

Bu ezgu harakatlar zamirida talaba-yoshlarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini san'at asarlari va badiiy kompozitsiyalar yordamida shakllantirib borish. Qolaversa, g'oyaviy jihatdan insonlarni ezgulikka chorlovchi rangli tasvir asarlari timsolida yoshlarimizning Vatanga nisbatan muhabbati va sadoqatini kuchaytirish, ona tabiatga va ona siymosiga bo'lgan mehrini yanada kuchaytirishdek mas'uliyat mujassam.

TTA Matbuot xizmati



FARZANDIM BILAN BIR KUN

Toshkent tibbiyot akademiyasida "Farzandim bilan bir kun" mavzuida ota-onalar birinchi kongressi bo'lib o'tdi.

Unda akademiyaning turli bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar ota-onalari, professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirok etdi.

Ota-onalar zamonaviy smart tibbiyot oliyohida yaratilgan sharoitlar, o'quv laboratoriyalari, zamonaviy simulyatsion markaz va yaqinda foydalanishga topshirilgan yangi o'quv binosi bilan tanishishdi.

Ta'kidlanganidek, bugun tibbiyot sohasiga malakali kadrlar yetkazib berish dolzarb vazifaga aylangan. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlashda akademiya "Oliy ta'lim muassasasi va oila" hamkorligini yo'lga qo'ygani bo'lib, o'tkazilgan ilk kongressning maqsadi ham jamiyatning bosh bo'g'ini sanalgan oilalar bilan yaqindan ishlashdan iborat.

Aytib o'tilganidek, mazkur hamkorlik yoshlarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda, ularning jahon standartlariga mos kadrlar bo'lib yetishishlarida muhim o'rin tutadi. Qolaversa, ta'lim sifatini oshirishda mazkur kongressning ahamiyati katta. Anjuman davomida ota-onalar fikrlari va takliflari tinglandi.



YOSHLARNI JISMONAN, MA'NAN YETUK TARBIYALASH KELAJAK POYDEVORI

Qay bir davlatning rivojlanishi unda yetishib chiqqan kadrlarning salohiyatiga ham bog'liq. Yetuk va malakali kadr bo'lib yetishtirish uchun esa o'sha davlatning yoshlarga berayotgan imkoniyati va siyosatining naqadar sermazmun va ildam ekanligida ko'rishimiz mumkin.



Bugungi globalashgan jamiyatdagi eng katta kuch va eng katta e'tibor yoshlar va ularning jismonan va ma'nan yetukligiga qaratilayotganligi shubhasiz. Chunki bugungi yoshlar ertaning ustuni va kelajakning bunyodkori hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor davlat siyosati darajasida ekanligi, hali yosh bo'lgan menga ham iftixor tuyg'usini beradi. Prezidentimiz davlat rahbari sifatida imzolagan ilk hujjatlari ham "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ekanligi ham bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Hozirda xoh ilm, xoh sport, xoh ijodkorlik bo'lsin barcha yoshlarga yo'llar ochiq. Yoshlarni ish bilan ta'minlashdan tortib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishgacha bo'lgan ustuvor vazifalar doimo birinchi galdagi maqsad bo'lib kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" deya aytgan so'zlari, yoshlar bilan ishlash tizimini hech qachon ortga surib bo'lmaydigan, dolzarb masalalardan biri ekanligini bildiradi.

Hozirda oliy ta'lim muassasala-

rida ham talaba yoshlarning yetuk kadr va malakali kasb egasi bo'lishi bilan bir qatorda, ularning kelajak hayotda o'rinlarini topish, jismonan hamda ma'nan yetuk shaxs sifatida Yangi O'zbekiston jamiyatiga kerakli bo'lishlari uchun turli tashabbuslar ilgari surib kelinmoqda. Xususan Toshkent tibbiyot akademiyasida talaba-yoshlarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida bir nechta yetakchi tashabbuslar ilgari surilib, amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-son Qaroriga muvofiq Tibbiyot akademiyasida "Futbol liga"si va uning tashqari qizlar va yigitlar o'rtasida voleybol, stol tennis, shaxmat va shashka, badminton sport turlari bo'yicha liga turnirlari tashkil etilgan. Jami yetti mingga yaqin talabalarni qamrab oladigan bu sport musobaqalari hozirda faoliyat olib borayotgan "Shifokor" sport majmuasida va talabalar turar joylaridagi sport maydonlarida olib boriladi.

Shuningdek, "Tashabbusli byudjet" asosida yutib olingan qiymati 1 milliard 200 million so'mlik 4 ta mini futbol stadioni ham 2023-2024-o'quv yilidan talabalar foydalanishi uchun topshirildi. Yuqorida aytilgan barcha sport turlari jamoaviy tarzda bo'lib ikkita davra o'yinidan iborat bo'lib, birinchi mavsum 2023-yil aprel-iyun oylarida bo'lib o'tgan edi. 2023-2024-o'quv yili boshlanishi bilan ikkinchi mavsum boshlab berildi. Ushbu turnirlar Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan holda yakunda barcha ishtirokchilar va g'oliblarning munosib taqdirlanishi belgilangan.

Bu kabi sport musobaqalari talabalarning sog'lom turmush bilan doimiy ravishda bog'liqligini, jamoa bo'lib harakatlanishi va natijaga erishishni, o'z irodasini mustahkamlash va o'z ustida ishlashni mujassam etadi. Biz esa aynan shunday jismonan, ma'nan yetuk kadrlar orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni bosh maqsad qilib olganmiz.

Suxrob RUZMETOV,
ma'naviyat bo'limi xodimi



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil sentabr)

No	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son fakultet va gospital terapiya va kasb patologiyasi	assistent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	Odam anatomiyasi va OXTA	katta o'qituvchi – 1,0
2.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	katta o'qituvchi – 1,0 assistent – 1,0
3.	Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari	mudir – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
1.	Atrof-muhit gigiyenasi	mudir – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
1.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	mudir – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

BAHSLARGA BOY TARZDA O'TGAN SPORT TADBIRI

Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti Tibbiy biologiya yo'nalishi 4-kurs talabalari va Davolash fakulteti 5-kurs talabalari o'rtasida sport tadbiri o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi.

Ushbu tashabbusning ikkinchi yo'nalishi yoshlarni jismonan chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida bu borada keng ko'lamli

ishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Olmazor tumanidagi 196-maktab internatida o'tkazilgan mini futbol bo'yicha sport tadbiri ham shular jumlasidan.

O'yin juda qiziqarli, bahslarga boy tarzda o'tdi va o'rtoqlik o'yini sifatida o'tkazildi. O'yin natijasiga ko'ra hisob 7:7 kuchlar teng keldi.

Eldor SHODIQULOV,
tyutor



MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi